



FACTORS FOR ELIMINATING PROBLEMS IN THE TRANSLATION OF PREDICATIVE DEVICES IN ENGLISH INTO UZBEKI LANGUAGE

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10142747>

Umirzakova Shakhzodakhan Gafurovna

sumirzakova@gmail.com

Teacher of Andijan State Institute of Foreign Languages

In the article, the factors of solving problems in the translation of predicative devices in English into Uzbek are explained.

Key words

impersonal forms of the verb, predicative device, adjective, gerund, infinitive, predicative device with infinitive

INGLIZ TILIDAGI PREDIKATIV QURILMALARNING O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILINISHIDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH OMILLARI

Umirzakova Shaxzodahon G'ofurovna

sumirzakova@gmail.com

Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Maqolada ingliz tilidagi predikativ qurilmalarning o'zbek tiliga tarjima qilinishidagi muammolarni bartaraf etish omillari talqin qilinadi.

Kalit so'zlar

fe'lning shaxssiz shakllari, predikativ qurilma, sifatdosh, gerundiy, infinitiv, infinitivli predikativ qurilma

Ingliz tilida fe'lning barcha shaxssiz shakllari bilan muayyan predikativ qurilmalar mavjud. O'zbek talabalarida ushbu sintaktik qurilmalar bo'yicha lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar shakllanishida va ularning o'zbek tiliga tarjimasida ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilidagi fe'lning shaxssiz shakllari bilan yasalgan predikativ qurilmalar ikki qismdan iborat. Predikativ qurilmaning qismlari ega va kesim emas. Uning birinchi qismi ot qism deb atalib, ot yoki olmosh bilan ifodalanadi. Ikkinchisi esa fe'l qism deb atalib, fe'lning shaxssiz shakllaridan biri (Sifatdosh I/II, gerundiy yoki infinitiv) bilan ifodalanadi. Predikativ qurilmalar ko'pincha sintaktik birikma yasaydi va bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Predikativ qurilmaning Sifatdosh



I/II, gerundiy yoki infinitiv bilan ifodalangan fe'l qismi ot yoki olmosh bilan ifodalangan ot qismga nisbatan gapdagi ega va kesim kabi biri ikkinchisini ma'lum bir shaklda turishini talab qiladi. Predikativ qurilma haqida to'la tushunchaga ega bo'lish uchun gap bilan predikativ qurilma o'rtasidagi farqni aniqlab olish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, gap kamida bitta ega va kesimdan tashkil topadi. Ularda predikatsiya mavjud. Predikatsiya ega va kesim munosabatidir. Boshqacha aytganda, gapda ega va kesim bir-biri bilan ma'lum bir shaxs va sonda moslashadi. Masalan: Karim look yoki He look deyish noto'g'ri. Predikativ qurilmada ega va kesim mavjud emas, ammo uni tashkil etgan qismlar ega va kesimga o'xshab bir-biri bilan muayan bir shaklda moslashadi. Masalan: I see Karim looking at me gapida murakkab to'ldiruvchi vazifasinini bajaruvchi sifatdoshli predikativ qurilma (The Objective Participial Construction) mavjud va u murakkab to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Ushbu gapdagi Karim looking predikativ qurilmadagi fe'l qism (looking) ot qismga (Karim) nisbatan kesimlik munosabatida turadi. Boshqacha aytganda, ob'yektiv sifatdoshli qurilma Karim looks yoki Karim's looking emas, Karim looking shakliga ega bo'lishi lozim. Demak, predikativ qurilmada ega - kesim munosabati emas, unga o'xshash munosabat mavjud.

I. SIFATDOSHLI PREDIKATIV QURILMALAR.

Ingliz tilida quyidagi sifatdoshli qurilmalar mavjud:

1. The Objective Participial Construction.
2. The Subjective Participial Construction.
3. The Nominative Absolute Participial Construction.
4. The Prepositional Absolute Participial Construction
5. Absolute constructions without a participle.

1. To'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi sifatdoshli predikativ qurilma.

To'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi sifatdoshli predikativ qurilmada Sifatdosh I yoki II umumiyligi kelishikdagi ot yoki ob'yektiv kelishikdagi kishilik olmoshiga nisbatan kesimlik munosabatida turadi. Gapda bu qurilma murakkab to'ldiruvchi vazifasinini bajaradi. Ushbu qurilma quyidagi holatlarda ishlatiladi:

- a) to see, to hear, to feel, to find kabi sezgini ifodalovchi fe'llardan so'ng;
I saw my friend coming. - Men do'stimming kelayotganini ko'rdim.
- b) to consider, to understand kabi aqliy faoliyatni ifodalovchi fe'llardan so'ng;
Dilshod considers himself engaged to Sharofat. - Dilshod o'zini Sharofatga unashtirib qo'yilgan deb hisoblaydi.
- c) to want, to wish, to desire kabi istak-xohishni ifodalovchi fe'llardan so'ng;
We want it done today. - Biz buni bugun bajarilishini xohlaymiz.
- d) to have va to get fe'llaridan so'ng. Ushbu fe'llardan so'ng qurilmaning fe'l qismi faqat Sifatdosh II bilan ifodalanadi.



I had my watch repaired. – Men soatimni tuzattirdim.

Bunday gaplarning so'roq va inkor shakllari to do yordamchi fe'li bilan yasaladi. - Did you have your watch repaired? – No, I didn't. I didn't have my watch repaired.

2. Ot qismi formal ega vazifasini bajaruvchi sifatdoshli qurilma.

Bu predikativ qurilmada sisatdosh (ko'pincha Sifatdosh I) umumiyl kelishikdag'i ot yoki bosh kelishikdag'i kishilik olmoshiga nisbatan kesimlik munosabatida turadi. Ushbu qurilmaning xususiyati shundaki, uning ot qismi formal ega, fe'l qismi esa qo'shma fe'l kesimning bir qismi vazifalarini bajaradi. Bu predikativ qurilma, asosan, sezgini ifodalovchi fe'llardan so'ng keladi va unda majg'ullik nisbati ishlataladi. - Salima was heard singing an English song.

- Salimaning ashula aytayotgani eshitildi.

3. Nominative absolyut sifatdoshli qurilma.

Bu predikativ qurilmada sifatdosh umumiyl kelishikdag'i ot yoki bosh kelishikdag'i kishilik olmoshiga nisbatan kesimlik munosabatida turadi. Qurilmaning ot qismi gapning egasi emas. Qurilmaning fe'l qismi Sifatdosh I yoki Sifatdosh II bilan ifodalanishi mumkin. Ushbu predikativ qurilma payt, sabab, shart va holat holi (an adverbial modifier of attendant circumstances) vazifalarini bajaradi.

The letter having been written, I went to post it. – Xat yozilib bo'lingandan so'ng men uni jo'natgani pochtaga olib bordim. - (payt holi)

The door of the room being locked, we couldn't enter the room. – (sabab holi)

He turned and went, we, as before, following him. – U orqaga o'girilib, ketib qoldi. Biz esa, odatdagidek, uning orqasidan yura boshladik. – (holat holi)

Weather permitting, we shall go for a walk to the mountains. – Ob-havo ruxsat bersa, biz toqqa sayrga chiqamiz. – (shart holi)

Ushbu predikativ qurilma, ko'pincha, badiiy asarlarda va ilmiy adabiyotlarda ishlataladi.

4. Predlogli absolyut sifatdoshli qurilma.

Predlogli absolyut sifatdoshli qurilma with predlogi bilan ishlataladi. Bu qurilma asosan holat holi sintaktik vazifasini bajaradi.

She sat with her legs stretched to the fire-place. – U o'choqqa oyog'ini uzatib o'tirardi.

5. Sifatdoshsiz absolyut qurilmalar.

Absolyut qurilmalarning ikki xil turi mavjud bo'lib, ularda sifatdosh ishlatilmaydi. Qurilmaning fe'l qismi sifat, predlogli jumla yoki ravish bilan ifodalanadi.



1. The Nominative Absolute Construction (Nominativ absolyut qurilma). Bu qurilma payt yoki holat holi vazifasini bajaradi.

The lecture over, the students went out of the auditorium.

- Ma'ruza tugagach, talabalar auditoriyadan chiqishdi (payt holi).

He sat his skull-cap in his hand. - U do'ppisini qo'lida ushlab o'tirardi.

Eslatma: The lesson (concert, lecture) over bilan The lesson (concert, lecture) being over o'rtasidagi farqni eslab qolish zarur. The lesson (concert, lecture) being over Nominative absolyut sifatdoshli qurilma bo'lib, unda sabab ma'nosi bor. The lesson (concert, lecture) over esa Sifatdoshli absolyut qurilma bo'lib, payt ma'nosiga ega.

The lessons over, we went home. - Darslar tugagach, biz uyga ketdik.

The lessons being over, we went home. - Darslar tugaganligi sababli, biz uyga ketdik.

2. The Prepositional Absolute Construction (Predlogli absolyut qurilma).

Bu qurilma asosan holat holi vazifasida ishlatiladi.

I saw the secretary with a file in her hand. - Men kotibani qo'lida tikilgan hujjatlar bilan turganini ko'rdim.

II. GERUNDIYLI PREDIKATIV QURILMA.

Gerundiyligi predikativ qurilmada gerundiy bilan ifodalangan fe'l qism ot yoki olmosh bilan ifodalangan ot qismiga nisbatan kesimlik munosabatida turadi.

Ushbu qurilmaning ot qismi turlicha ifodalanishi mumkin.

1. Agar qurilmaning ot qismi jonli mavjudotni anglatsa, u quyidagi ot yoki olmosh shakllari bilan ifodalanadi:

a) egalik kelishigidagi ot yoki egalik olmoshi bilan;

I don't like Sarvar's boasting of himself. - Menga Sarvarning o'zini-o'zi maqtashi yoqmaydi.

I don't mind your staying at home. - Men sizning uyda qolishingizga qarshi emasman.

b) umumiy kelishikdagi ot bilan;

Football fans gave a good recollection of Portugese football forward Asabio scoring at least one goal in every football game. - Futbol ishqibozlari portugaliyalik futbol hujumchisi Eyseybiyoning har bir futbol oyinida hech bo'lmasa bitta to'p urganini yaxshi eslaydilar.

c) ob'yektiv kelishikdagi kishilik olmoshi bilan;

I hope you will forgive him upsetting you. - Umid qilamanki, siz uning sizni hafa qilishini kechirasiz.

d) all, this, that, both, each, something kabi olmoshlar bilan.

The dean insists on both of the students going to the conference. -



Dekan har ikkala talabaning konferensiyaga borishiga qattiq turdi. 2.

Agar qurilmaning ot qismi jonsiz mavjudotni anglatsa, u umumiyl kelishikdagi ot yoki egalik olmoshi bilan ifodalananadi.

He said to me about his clock being fast. – U menga soati tez ketib qolayotgani haqida aytdi.

III. INFINITIVLI QURILMALAR.

Ingliz tilida quyidagi infinitivli qurilmalar mavjud:

1. The Objective-with-the-Infinitive Construction.
2. The Subjective Infinitive Construction.
3. The for-to-Infinitive Construction.

1. To'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi infinitivli predikativ qurilma.

To'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi infinitivli predikativ qurilmada infinitiv bilan ifodalangan fe'l qism umumiyl kelishikdagi ot yoki ob'yektiv kelishikdagi kishilik olmoshi bilan ifodalangan ot qismga nisbatan kesimlik munosabatida turadi. Bu qurilma gapda murakkab to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

I felt my foot ache. – Men oyog'imda og'riq sezdim.

To'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi infinitivli predikativ qurilma quyidagi holatlarda ishlataladi:

1. to hear, to see, to watch, to observe, to notice kabi sezgi va his-tuyg'uni ifodalovchi fe'llardan so'ng;

I usually watch my little sister play her dolls. – Men, odatda, singilchamni qo'g'irchoqlarini o'ynashini kuzataman.

2. to know, to think, to consider, to believe, to expect, to emagine, to find, to feel, to trust kabi aqliy faoliyatni anglatuvchi fe'llardan so'ng;

I know Timur to be the most powerful statesman of the Uzbek people.

3. to pronounce, to declare, to report kabi e'ltonni anglatuvchi fe'llardan so'ng;

The referee declared him to be the winner of box tournament. – Hakam uni boks musobaqasining g'olibi deb e'lon qildi.

4. to want, to wish, to desire, to mean, to intend, to choose (xohlamoj) kabi xohish va istakni anglatuvchi fe'llardan so'ng;

I want Rahim to approve your idea. – Men Rahimni sizning fikringizni qo'llab-quvvatlashini xohlayman. We expected her to marry Nodirbek.

5. to like, to dislike, to love, to hate, can't bear kabi sezgi va his-hayajonni anglatuvchi fe'llardan so'ng;

I hate him to be flogged. – Men uning kaltaklanishini yomon ko'raman.

I dislike her to talk like that. – Men uning bunaqa tarzda gaplashishini yoqtirmayman.

6. to order, to allow, to suffer, to have kabi buyruq va ruxsatni agnlatuvchi fe'llardan so'ng;



The head of the chair ordered the students to get ready for every lesson very well. - Kafedra mudiri talabalarga har bir darsga yaxshilab tayyorgarlik ko'rishlarini buyurdi.

7. to make (majbur qilmoq), to cause (majbur qilmoq), to get (erishmoq), to have (majbur qilmoq) kabi majburlashni anglatuvchi fe'llardan so'ng;

Mother made him wash his dirty hands. - Ona uni kir qo'lllarini yuvishga majbur qildi.

8. to rely fe'lidan so'ng. I rely on you to do this difficult exercise. - Men bu qiyin mashqni sizni bajarishingizga ishonib turibman.

2. Ot qismi formal ega vazifasini bajaruvchi infinitivli qurilma.

Ot qismi formal ega vazifasini bajaruvchi infinitivli predikativ qurilmada infinitiv umumiy kelishikdagi ot yoki bosh kelishikdagi kishilik olmoshiga nisbatan kesimlik munosabatida turadi. Ushbu qurilmaning xususiyati shundaki, uning ot qismi formal ega, fe'l qismi esa qo'shma fe'l kesimning bir qismi vazifalarini bajaradi va unda majg'ullik nisbati ishlatiladi.

James Joyce is said to be the great writer of the Irish people. -

Aytishlaricha, Jeyms Joys irland xalqining buyuk yozuvchisidir.

Ushbu predikativ qurilma quyidagi guruh fe'llaridan so'ng ishlatiladi:

1. to see, to hear kabi sezgini anglatuvchi fe'llar bilan;

He is always seen to work hard at himself. - Uni doimo o'zining ustida qattiq ishlashini ko'rish mumkin.

2. aqliy faoliyatni ifodalovchi to think, to consider, to know, to expect, to believe, to suppose fe'llari bilan;

Jumong is thought to be honest and kind hero of the Korean people.

- Jumong Koreya xalqining vijdonli va mehribon qahramoni hisoblanadi.

3. to make (majbur qilmoq) fe'li bilan;

He was made to get up early. - U erta turishga majbur qilindi.

4. to be likely, to be sure va to be certain so'z birikmalari bilan;

He was sure to win the game. - U o'yinda g'olib bo'lishiga ishonardi.

Komiljon is likely to come today. - Komiljon bugun keladigandek tuyulayapdi.

5. to seem va to appear, to happen va to chance, to prove va to to turn out sinonim guruhli fe'llar bilan.

Only yesterday we happened to find our lost book. - Faqat kechagina biz yo'qotib qo'yan kitobimizni topib oldik.

The experiment proved to be a success. - Tajriba muvaffaqiyatli chiqdi.

3. "For" predlogi bilan ishlatiladigan infinitivli predikativ qurilma.



For predlogi bilan ishlataladigan infinitivli predikativ qurilmada infinitiv for predlogidan keyin kelgan ot yoki olmoshga nisbatan kesimlik munosabatida turadi. Bu qurilma gapda turli vazifalarni bajaradi:

1) Ega vazifasi.

1. For me to get up early in the morning is a usual thing. – Ertalabda erta turish men uchun odatiy holat.

2). Predikativ (qo'shma ot kesimning ot qismi) vazifasi.

That work was for them to do. – Ana shu ishni ular qilishlari kerak edi.

3). Murakkab to'ldiruvchi vazifasi.

I waited for my close friend to come. – Men yaqin do'stimni kelishini kutdim.

4). Aniqlovchi vazifasi.

The best thing for me to do is to help you. – Men qiladigan eng yaxshi narsa sizga yordam berish.

5). Maqsad holi vazifasi.

I give you this book for you to read. – Men bu kitobni sizga o'qish uchun beraman.

6. Natija holi vazifasi.

He speaks loud enough for everybody to hear.

Ingliz tilidagi fe'lning shaxssiz shakllari bilan yasalgan predikativ qurilmalar yasalishi va ularning ishlatalishida o'zbek talabalarida kelib chiqishi mumkin bo'lgan lingvistik va kommunikativ interferensiyalarni oldini olish va ularni bartaraf etish uchun ushbu sintaktik qurilmalar va ularning o'zbek tiliga tarjimasi bo'yicha muayyan mashqlar tizimini yaratish maqsadga muvofiq.